

Yuridik shaxs
bilan telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha
INT-G0001/44-sonli Abonent shartnomasi

Namangan sh.

"20" avgust 2022

1. Keyingi o'rinlarda "Operator" deb yuritiluvchi "O'zbektelekom" AK (keyingi o'rinlarda matnda "Kompaniya" deb yuritiladi) nomidan 2021 yil 5 yanvardagi 21-01-14/27-sonli ishonchnoma asosida harakatlanuvchi "O'zbektelekom" AK Namangan filiali direktori B.Nurmatov bir tomondan va keyingi o'rinlarda "Abonent" deb yuritiluvchi Tyrag'ozon BSCM nomidan Ustav (Nizom, ro'yxatga olinganlik to'g'risidagi guvohnoma, ishonchnoma) asosida harakatlanuvchi H. Tyrag'ozon ikkinchi tomondan, bundan keyin alohida "Tomon", birgalikda esa "Tomonlar" deb yuritiladi, telekommunikatsiya xizmatlarini taqdim etish uchun ushbu Abonent shartnomasini (keyingi o'rinlarda matnda "Shartnoma" deb yuritiladi) quyidagilar haqida tuzdilar.

1.1. Ushbu Telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha shartnoma imzolangan paytdan boshlab Abonent (shu jumladan uning hududiy vakolatxonolari va filiallari) bilan avval tuzilgan shartnomalar yuridik kuchini yo'qotadi.

2. Abonent ushbu Shartnomani imzolab, rasmiy saytda e'lon qilingan "O'zbektelekom" AKning Ommaviy oferta shartlari asosida Operator bilan telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha Shartnoma tuzadi. Abonent Ommaviy oferta matni bilan tanishadi (Ommaviy ofertaning to'liq matni Operatorning savdo ofislarida, Operator Agentlarining savdo ofislarida va Operatorning rasmiy WEB-saytida joylashtirilgan). Operator tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar uchun Abonent avans to'lovini amalga oshirishi va to'lov faktini tasdiqlovchi tegishli moliyaviy hujjatni olishi Operatorning Ommaviy ofertasining shartlarini so'zsiz qabul qilish (akseptini) hisoblanadi.

3. Ushbu Shartnoma Abonent tomonidan imzolanganidan so'ng Operator texnik imkoniyatlarning mavjudligini tekshiradi. Agar texnik imkoniyat mavjud bo'lsa, Operator Shartnomani o'z tarafidan imzolaydi va Abonentga identifikatsiya raqamini beradi. Identifikatsiya raqami berilgandan so'ng Abonent avans to'lovini amalga oshirishi mumkin. Texnik imkoniyat mavjud bo'lmagan taqdirda va Operator Shartnoma imzolanganiga qadar ushbu hujjat Abonentning telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi arizasi hisoblanadi.

3.1. Abonentni ulash shartlari va telekommunikatsiya xizmatlariga tariflar (narxlar) ushbu Shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan ilovalar bilan belgilanadi va ushbu Shartnoma kuchga kirgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi:

1-ilova. Ko'rsatiladigan xizmatlar:

- "Mobil aloqa xizmatlari uchun tarif rejalari (telefoniya, ma'lumotlar uzatish, VAS)";
- "Internet tarmog'iga doimiy korporativ kirish xizmatlar uchun tarif rejalari (KPK, IP telefoniya, VPN)";
- "IPTV xizmatlari uchun tarif rejalari";
- "Virtual xostingning" xizmatlari uchun tarif rejalari";
- "Bulutli videokuzatuv" xizmatlari uchun tarif rejalari";
- "Umumiy foydalanishdagi telefoniya xizmatlari uchun tarif rejalari (TfOP, PSTN)".

2-ilova. Ishni qabul qilish va ajratilgan ulanishni sinash dalolatnomasi.

3.2. Abonent tomonidan Operator taqdim etadigan xizmatlar ro'yxatining tanlashiga qarab, tomonlar bitta ilovani rasmiylashtirishlari mumkin.

3.3. Tomonlar amaldagi ilovalaridan birining o'rniga yangi ilovani imzolagan taqdirda, ohirgisi tomonlar ushbu Shartnomaga qo'shimcha bitim imzolagan paytdan boshlab tomonlar uchun o'z kuchini yo'qotadi.

4. Ushbu Shartnoma bo'yicha xizmatlarning qiymati ilovalarga muvofiq belgilanadi.

4.1. Tariflar Shartnoma tuzilganda va Operator xizmatlaridan foydalanish jarayonida Abonent bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun majburiydir. Xizmatlar uchun barcha tariflar milliy valyutada ko'rsatiladi va ushbu Shartnoma tuzilgan vaqtda belgilangan barcha soliqlar va yig'imlarni o'z ichiga oladi.

4.2. Shartnoma miqdori ushbu Shartnomaning 3.1-bandida ko'rsatilgan ilovalarga muvofiq taqdim etiladigan xizmatlar hajmi bilan belgilanadi va:

QQSni	hisobga	olgan/olmagan	holda	<u>360000</u>
<u>(Y2 to'lov o'rtinam miqdori)</u> so'mni tashkil etadi, u esa QQSni hisobga olgan/olmagan holda <u>360000</u> (<u>Y2 to'lov o'rtinam miqdori</u>) miqdorida abonent to'lovini hamda QQSni hisobga olgan/olmagan holda <u>()</u> miqdoridagi bir martalik to'lovni o'z ichiga oladi.				

4.3. Ushbu Shartnoma / abonent to'lovi miqdori oshib ketgan taqdirda, ortiqcha summaning miqdori tomonlar tomonidan imzolangan qo'shimcha kelishuv/taqdim etilgan hisob-faktura asosida to'lanadi.

4.4. Abonent keyingi hisob-kitob davri (hisobot oyi) boshlangunga qadar oldindan to'lovning 100 (yuz) foiz sharti bilan har oyda xizmatlar uchun to'lovni amalga oshiradi. Ushbu to'lov Shartnomaning 7-bandida ko'rsatilgan Operatorning shaxsiy hisob raqamlariga pul mablag'larini ko'rsatilgan xizmatlar turini hisobga olgan holda, tanlangan hajm va tariflar/tarif rejalari muvofiq o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

4.5. Xizmatlardan foydalanish uchun abonent to'lovi birinchi oyda ushbu Shartnoma tuzilgan sanadan boshlab 7 (yetti) kalendar kuni mobaynida amalga oshiriladi. Birinchi ulanishda abonent to'lovi summasi oyning qolgan kunlari uchun qayta hisoblash yo'li bilan yechiladi. Avans to'lovi oldindan to'lov bo'yicha talabnoma (hisob) asosida hamda Shartnoma asosida tegishli ilovada ko'rsatilgan miqdorga muvofiq har bir tanlangan xizmat turi uchun alohida amalga oshirilishi mumkin.

4.6. Agar Abonentning shaxsiy hisobvarag'ida xizmatlar ko'rsatish uchun yetarli mablag' bo'lmasa, Operator ushbu Shartnoma bo'yicha xizmatlar ko'rsatishni to'xtatishi mumkin. Operator tomonidan ulangan va taqdim etilgan xizmatlardan foydalanilmaganlik fakti Abonent uchun ularni to'lashdan ozod qilish uchun asos bo'la olmaydi.

4.7. Operator dan Reklama aksiyalar davomida Abonentga taqdim etiladigan barcha bonuslar ko'rinishidagi mablag'lar

faqat Operator xizmatlari uchun to'lanishi mumkin va Shartnoma bekor qilinganda Abonentga pul shaklida to'lanmaydi.

4.8. Taqdim etilgan xizmatlar ushbu Shartnomaga tayangan holda taqdim etilgan xizmatlarning har bir turi uchun alohida rasmiylashtiriladigan hisob-faktura bilan yopiladi. Har bir hisob-fakturada ushbu Shartnomaning 3.1-bandida ko'rsatilgan ilovalariga muvofiq taqdim etilgan xizmatlarning to'liq kalendar oyi uchun umumiy miqdori ko'rsatiladi. Agar 5 (besh) ish kuni mobaynida Abonent o'z da'volarini yozma shaklda yoki faks orqali taqdim etmasa, ushbu xizmat turi bo'yicha hisob-faktura qabul qilingan va xizmatlar tegishli tarzda ko'rsatilgan deb hisoblanadi. Abonentning da'volari asoslantirilgan taqdirda, Operator keyingi oyda taqdim etiladigan xizmatlar uchun to'lov talabnomasida (hisobida) tegishli tuzatishni amalga oshiradi.

5. Abonent Ommaviy oferta qoidalariga to'liq va so'zsiz roziligini bildirdi. Ommaviy ofertada ko'rsatilgan Shartnomaning barcha muhim shartlari (shartnoma predmeti, tariflari va xizmat turi, tomonlarning huquq va majburiyatlari, hisob-kitoblarning shakli va tartibi, javobgarlik va boshqalar) Ommaviy ofertaga muvofiq belgilanadi. Ushbu Shartnomada nazarda tutilmagan hollarda tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga amal qiladi.

6. Ushbu Shartnoma Abonent tomonidan Ommaviy oferta aksept qilingan (imzolangan) paytdan boshlab kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrgacha amal qiladi. (byudjet oluvchi abonent uchun ushbu Shartnoma tegishli davlat organlarida tomonidan ro'yxatga olinishi kerak). Bunda, agar Shartnomaning belgilangan amal qilish muddati tugagandan so'ng tomonlar o'z shartlarini bajarishni davom ettirsa va tomonlarning hech biri uning bekor qilinishini e'lon qilmagan bo'lsa, byudjet oluvchi va yuridik shaxs tashkil etmagan yakka tartibdagi tadbirkor bo'lmagan abonentlar uchun Shartnoma har bir keyingi yilga uzaytiriladi.

6.1. Ushbu Shartnoma, jumladan, Operatorning rasmiy saytida e'lon qilingan Ommaviy oferta, ilova va qo'shimchalar, agar mavjud bo'lsa, Shartnoma predmeti yuzasidan Operator va Abonent o'rtasida to'liq Shartnomani tashkil etadi.

6.2. Ushbu Shartnoma shartlari va Ommaviy oferta shartlari o'rtasida qarama-qarshiliklar mavjud bo'lgan taqdirda, Ommaviy oferta shartlari va qoidalari ustun kuchga ega bo'ladi.

6.3. Tomonlarning manzillari va bank rekvizitlari, ularning ta'sis hujjatlari o'zgargan taqdirda, shu jumladan mulkdorning, tashkiliy-huquqiy shaklining o'zgarishi va boshqa o'zgarishlar ro'y bergan taqdirda, Shartnoma o'z kuchida qoladi. Shu bilan birga, tomonlar 10 (o'n) kun ichida bir-birlarini xabardor qilishlari shart.

6.4. Shartnomaga o'zgartirishlar va qo'shimchalar, agar ular yozma ravishda tuzilgan bo'lsa va ushbu harakatlarga vakolatli shaxslar tomonidan imzolangan, tomonlarning muhrlari bilan bosib tasdiqlangan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.

6.5. Ushbu shartnoma o'zbek tilida, 2 (ikki) nusxada, har bir tomon uchun bittadan tayyorlangan.

7. Tomonlarning manzillari va bank rekvizitlari:

Operator	Abonent
AK «Узбектелеком»	<i>БҲСМ</i>
Namangan viloyat Namangan shahar Istiqlol kuchasi 57 uy STIR:203366731 MFO:00401 IFUT:61100 H/r: 2021 0000 0040 7483 8363 "Aloqabank" ATB e-mail: b2b@uztelecom.uz Tel.: 1155	Manzil: <i>Markaziy bankning Toshkent shahar Bosh boshqarmasi Hisob-kitob-kassa markazi(HKKM)</i> Tel: <i>69-74-21-372</i> Faks: H/R: <i>100022860172742023640509</i> Bank: <i>Markaziy bank</i> MFO: <i>00014</i> STIR: <i>207239126</i> IFUT: E-mail: LOT: G'aznachilik bo'linmasining nomi <i>Tyagunov B.S.</i> YaG'H23402000300100001010 Bank nomi Markaziy bankning Toshkent shahar Bosh boshqarmasi Hisob-kitob-kassa markazi(HKKM). MFO:00014 G'aznachilik bo'linmasining STIRi <i>20122917</i> Buyurtmachi raxbari <i>H. Tyagunov</i>

Imzo:

Nurmatov B

MJ

Huquqshunos

Bajardi.:Abdug'aniyev I
Tel: (369) 227-1810

Imzo:

MJ

H. Tyagunov



**ГОСУДАРСТВЕННЫЙ НАЛОГОВЫЙ КОМИТЕТ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

СВИДЕТЕЛЬСТВО

**О ГОСУДАРСТВЕННОЙ РЕГИСТРАЦИИ В КАЧЕСТВЕ
ПЛАТЕЛЬЩИКА НАЛОГА НА ДОБАВЛЕННУЮ СТОИМОСТЬ**

Настоящее Свидетельство подтверждает государственную регистрацию в качестве плательщика налога на добавленную стоимость и присвоение регистрационного кода.

НАИМЕНОВАНИЕ НАЛОГОПЛАТЕЛЬЩИКА:

АО "О'ЗБЕКТЕЛЕКОМ"

ИДЕНТИФИКАЦИОННЫЙ НОМЕР НАЛОГОПЛАТЕЛЬЩИКА:

203366731

ПОЧТОВЫЙ АДРЕС:

А.ТЕМУР ШОХ КО'ЧАСИ, 97А-УУ

РЕГИСТРАЦИОННЫЙ КОД:

326030013817

ДАТА РЕГИСТРАЦИИ:

22.11.2018

